

**O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qozog'iston Respublikasi Hukumati  
o'rtasida sanoat mulkini muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to'g'risida  
BITIM**

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qozog'iston Respublikasi Hukumati bundan keyin Tomonlar deb ataluvchilar, ikkala davlat o'rtasidagi tarixan tarkib topgan munosabatlarni e'tiborga olib, barqaror va ishonchli munosabatlarni rivojlantirish uchun sanoat mulki ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish zarurligini anglab, sanoat mulki ob'ektlarida muhofaza hujjatlari mualliflari va egalarining huquqlarini muhofaza qilish va foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning maqsadga muvofiqligini tushunib, sanoat mulkini muhofaza qilish sohasida patent integrasiyasining foydaliligini va kelishilgan siyosat o'tkazishning maqsadga muvofiqligini e'tirof etib, quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

**1-modda**

Tomonlar ixtirolar, sanoat namunalari, mahsulot belgilari va boshqa sanoat mulki ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi hamkorlikni ushbu Bitimga va boshqa o'zlari ishtirokchi bo'lgan yoki bo'ladigan xalqaro shartnomalarga muvofiq o'zaro manfaatdorlik hamda tenglik asosida amalga oshiradilar va rivojlantiradilar.

**2-modda**

Tomonlarning hamkorligi:

- sanoat mulki ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq masalalarni tartibga solishga;
- sanoat mulkini muhofaza qilish sohasidagi milliy huquqiy hujjatlarni muvofiqlashtirishga;
- O'zbekiston Respublikasi talabnoma beruvchilari uchun Qozog'iston Respublikasida va Qozog'iston Respublikasi talabnoma beruvchilari uchun O'zbekiston Respublikasida muhofaza xujjatlari berish so'ralgan talabnomalarni topshirish va ularni ko'rib chiqish tartibini o'zaro soddalashtirishga;
- sanoat mulkini muhofaza qilish sohasida axborot, normativ va boshqa hujjatlar, shuningdek, o'zaro tajriba va mutaxassislar almashishga yo'naltiriladi.

**3-modda**

Sanoat mulki muhofaza qilish sohasida bir davlatning jismoniy va yuridik shaxslari ikkinchi davlat hududida ushbu ikkinchi davlatning huquqiy hujjatlari bilan uning o'z jismoniy va yuridik shaxslari uchun hozirgi vaqtda berilgan yoki keyinchalik beriladigan hukuq va imtiyozlardan o'z jismoniy va yuridik shaxslari kabi bir xil asoslar hamda hajmlarda huquqiy muhofaza vositalaridan foydalanadilar.

Bunda ushbu Bitim bilan tartibga solinmagan masalalar bo'yicha Tomonlar 1967 yil 14 iyulda Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan Sanoat mulkini muhofaza qilish to'g'risidagi Parij Konvensiyasi qoidalarini qo'llaydilar.

**4-modda**

Tomonlardan har biri quyidagilarni ta'minlovchi zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradilar:

- sanoat mulki ob'ektlari uchun ilgari berilgan sobiq SSSR muhofaza hujjatlarining o'z hududida haqiqiylikini e'tirof etish;
- sanoat namunalari uchun sobiq SSSR ixtirolari va guvohnomalariga sobiq SSSR mualliflik guvohnomalarini qolgan amalda bo'lish muddati uchun milliy patentlarga almashtirish;
- sobiq SSSR mualliflik guvohnomalari va guvohnomalari bilan muhofaza qilingan

ixtirolardan va sanoat namunalaridan foydalanganlik uchun mazkur foydalanish sodir bo'lgan davlatning huquqiy hujjatlariga muvofiq mualliflarga mukofot pulini to'lash;  
- ikkala davlatning arizachilariga va ularning patent bo'yicha vakillariga milliy muhofaza hujjatlari berish uchun talabnomalarni hamda sobiq SSSR muhofaza hujjatlarini milliy muhofaza hujjatlariga almashtirish uchun iltimosnomani rasmiylashtirish, shuningdek, ushbu talabnomalar va iltimosnomalar bilan bog'lik, yozishmalarni rus tilida olib berish huquqini berish.

### **5-modda**

O'zbekiston Respublikasi yoki Qozog'iston Respublikasining har qanday jismoniy yoki yuridik shaxsi lisenziya shartnomasi tuzmasdan ixtiro yoki sanoat namunasidan foydalanish huquqini, basharti ushbu ixtiro yoki sanoat namunasidan foydalanish boshqa shaxslar tomonidan sobiq SSSR mualliflik guvohnomasi berish uchun talabnoma ilgari berilgan ixtiro yoki sanoat namunasiga milliy patent berish so'ralgan iltimosnoma topshirilgan sanadan oldin qonuniy ravishda boshlangan bo'lsa, saqlab qoladi.  
Bunda mualliflarga mukofot pulini to'lash ko'rsatilgan ixtiro yoki sanoat namunasi qaysi davlat hududida foydalanilayotgan bo'lsa o'sha davlatning huquqiy hujjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **6-modda**

Tomonlar iqtisodiy, savdo, sanoat, fan va texnika sohasida hamkorlik to'g'risidagi ikki tomonlama bitimlarga sanoat mulki ob'ektlarining muhofaza qilinishini ta'minlashga doir qoidalarni kiritish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

### **7-modda**

Muhofaza hujjatlarini berish so'ralgan talabnomalarni topshirish, muhofaza hujjatlarini qabul qilib olish va ularni o'z kuchida saqlab turishda ikkala davlatning patent bo'yicha vakillari o'zaro hamjihatlilik prinsipi asosida bevosita shu davlatlarning patent idorasi bilan ish olib borishlari mumkin bo'lib, bunda faqat milliy talabnoma beruvchilarning manfaatlarini ifodalaydilar. Bir davlatning milliy talabnoma beruvchilariga, shuningdek, uning huquqiy hujjatlari bilan belgilangan tartibda o'zaro hamjihatlilik prinsipi asosida muhofaza hujjatlarini olish va ularni o'z kuchida saqlab turish borasida bevosita boshqa davlatning patent idorasi bilan ish olib borish huquqi beriladi.

Bir davlatning murojaat qiluvchisi tomonidan boshqa davlatning patent bo'yicha vakiliga muhofaza hujjati berish uchun beriladigan talabnomalari milliy patent idorasiga talabnomalar berish to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda qabul qilinadi.

### **8-modda**

Talabnomalar topshirganlik, muhofaza hujjatlari berganlik, ularni o'z kuchida saqlab turganlik va sanoat mulkini muhofaza qilish va undan foydalanish bilan bog'liq boshqa yuridik jihatdan ahamiyatli ishlarni bajarganlik uchun poshlinalar to'lash, shuningdek, boshqa xizmatlar ko'rsatganlik uchun to'lov, O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasining vakolatli organlari tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy arizachilarning poshlinalari va to'lovlarini to'lash O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasining huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan valyutada va mikdorlarda amalga oshiriladi.

### **9-modda**

Bir davlatning jismoniy va yuridik shaxslari boshqa davlat hududida sanoat mulkiga tegishli patent fondlaridan, kutubxonalardan, bank ma'lumotlaridan milliy jismoniy va yuridik shaxslar foydalanadigan shartlarda foydalanadilar.

#### **10-modda**

Tomonlarning ushbu Bitimni amalga oshirish davomida bir-birlariga yo'llaydigan barcha hujjatlari rus tilida taqdim etiladi.

#### **11-modda**

Tomonlarning quyidagi patent idoralari ushbu Bitimni amalga oshirish uchun mas'ul hisoblanadilar:

- O'zbekiston Respublikasi uchun - O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasining Davlat patent idorasi,
- Qozog'iston Respublikasi uchun - Qozog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va savdo vazirligining Patent agentligi (Qozokpatent).

Ikkala davlat patent idoralarning hamkorlik qilish tartibi va shartlari ular o'rtasidagi maxsus bitimlar bilan belgilanadi.

#### **12-modda**

Ushbu Bitimdan kelib chiqadigan yoki uning bajarilishi bilan bog'liq masalalar yuzasidan anglashilmovchiliklar paydo bo'lganda Tomonlarning vakillari ushbu anglashilmovchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli maslahatlashuvlar o'tkazadilar va ushbu anglashilmovchiliklarni xal etishga erishish uchun zarur bo'lgan kuch-g'ayratlarini ayamaydilar.

#### **13-modda**

Ushbu Bitim Tomonlarning boshqa davlatlar bilan sanoat mulkini muhofaza qilish sohasida ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikda ishtirok etishiga to'sqinlik qilmaydi.

#### **14-modda**

Ushbu Bitimga Tomonlarning o'zaro roziligiga ko'ra o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

#### **15-modda**

Ushbu Bitim imzolangan sanadan boshlab kuchga kiradi.

Ushbu Bitim besh yil mobaynida amal qiladi. Agar Tomonlardan biri uning navbatdagi amal qilish davri tugashidan kamida olti oy oldin ushbu Bitimning amal qilishini to'xtatish bo'yicha o'z niyati to'g'risida ikkinchi Tomonni yozma ravishda xabardor qilmasa, uning amal qilishi keyingi besh yillik davrlarga o'z-o'zidan uzaytirilaveradi.

Ushbu Bitim amalda bo'lishining to'xtatilishi ikkala davlat jismoniy va yuridik shaxslariga ushbu Bitimning amalda bo'lish davrida berilgan talabnomalarga binoan berilgan yoki berilishi mumkin bo'lgan muhofaza hujjatlarining amal qilishiga daxl etmaydi.

Almati shahrida 1997 yil 2 iyunda, ikki asl nusxada, har biri o'zbek, qozoq va rus tillarida tuzildi, barcha matnlar bir xil kuchga egadir.

Ushbu Bitim qoidalarini talqin qilishda anglashilmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda rus tilidagi matnga amal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi  
Hukumati uchun

Qozog'iston Respublikasi  
Hukumati uchun

